

FRAZEOLOGIYA BO'LIMINING MUSTAQIL LINGVISTIK SOHA SIFATIDA SHAKILLANISHI VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARRAQIYOTIDAGI ASOSIY DAVRLARI

Madaliyeva Odinoxon

Xorijiy til va adabiyoti 1-kurs magistranti

Qo'qon Davlat pedagogika insituti

Annotatsiya: *Maqolada frazeologik birliklarning taraqqiyotidagi asosiy davrlari va tilshunos olimlarning frazeologizmlarni o'rganishdagi olib borgan ishlari va yondashuvlari haqidagi ma'lumotlar atroflicha yoritib berilgan. Tilshunoslikda odatiy vaziyatlarda tayyor reaksionalardan muntazam ravishda foydalaniladi masalan: klishelardan, qisqartirilgan iboralardan, degramatik shakllardan chunki bular nutqdagi aloqani osonlashtirishga va yengil vaziyatga mos muloqot olib borishga yordam beradi. Shu munosabat bilan, turli xil jonli manba'ni tashkil etuvchi frazeologik birliklar haqidagi ta'limot so'zlashuv nutqi alohida ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *frazeologik birlik, "ajralmas birliklar", turg'un iboralar nazariyasi, sintaksis, stilistika, so'z birikishi, tugallangan va tuganlanmaydigan bo'linmaydigan iboralar, ikkitalik sistema, idiomatika, atama, leksikologiya, obyekt va predmet.*

Frazeologiya atamasini birinchi bo'lib 1558 yilda nemis filologi Mixail Neander qadimgi yunon notiqi Isokratning (436-338 Miloddan avvalgi) (Yu.P. Solodub, F.B. Albrext) Nutq va Ifodalar to'plamini belgilash uchun kiritgan. Qadimdan turli xil turg'un nutqiy iboralar ko'plab lingvist olimlarni, yozuvchilarni va adabiyot tanqidchilarini o'ziga jalb etib kelgan. Shu iboralar leksikologlar, sintaksistlar, leksikograflar, grammatika va stilistika mutahassislari tomonidan o'rganilgan va shuning uchun ularga turli xil nomlar berilgan misol uchun: frazeologik birlik yoki fraza (Vinogradov, 1947), frazeologik ibora, frazeologik grafik namuna, (yaqin) frazeologik guruh, grafik frazeologik birlik, nutqiy frazeologik birlik, dialogdagi nutqiy ibora (Balli, 1961).

Birinчилardan bo'lib frazeologiya nazariyasining asoschisi shveytsariyalik tilshunos Charl Balli xissoblanadi. XX asrning boshida "Stilistika haqida qisqacha insho" ("Краткий очерк по стилистике") kitobida frantsuz tili so'zlarini va turli birikmalarini tasniflashga harakat qilib, ularning orasidagi semantik aloqalaridagi barqarorlik darajasiga tayangan holda ularning tarkibiy qismlarini (ya'ni semantik birlashganligini) o'rgandi. Biroq, u frazeologiyani mustaqil tilshunoslik intizomi sifatida ajratib ko'rsatishni o'rinli deb hisoblamadi xamda frazeologiyani leksikologiya bo'limi tarkibiga kiritib va frazeologik birliklarni stilistika jihatidan o'rgandi. Bu an'ana xorijiy tilshunoslikda haligacha saqlanib qolgan. "Shveytsariya maktabi" lingvistlari Charl Balli, F. de Sossyur hamda Alber Seshelar frazeologik birliklarning turlarini

aniqlashda hamda tilning stilistik-semantik tomonini o'rganishda juda ham ko'plab ishlar yaratishdi. Sharl Ballining "Traite de stylistique francaise" kitobida birinchi bora frantsuz tilida sinflarga tasniflangan frazeologik birliklar haqida kengaytirilgan ma'lumot berildi. Misol uchun ; (chaleur accablante, chaleur suffocante, une reconnaissance infinie (т. е. 'удручающий, удушающий зной' - og'rlashtiruvchi chilla , 'бесконечная благодарность'- cheksiz tashakkur) ushbu barqaror iboralarda aniqlovchi element faqat kuchaytiruvchi ma'noga ega va ularning asl ma'nosi zaiflashgan.

Sh Balli "ajralmas birliklar"ni aniq tanlash mezonini belgilashga katta e'tibor qaratdi. Bu mezonlar tashqi va ichki mezonlarga bo'linadi. U kitobida faqat ichki mezonlarni hal qiluvchi deb hisobladi. Frazeologik materialni stilistik tadqiq qilish nuqtai nazaridan Sh. Balli emotsional ekspressiv mazmunni frazeologik birliklarni yaratishda katta ahamiyatga egaligini ko'rsatdi va frantsuz tilida bir necha misollar berib o'tdi, kechroq esa akademik Vinogradov rus tilida shunday misollarni berib o'tdi.

Rossiyada frazeologiyaning zarurligini ta'kidlash g'oyasi mustaqil tilshunoslik faniga XX asrning 20-yillarida ko'tarildi. Biroq, frazeologizmlarning rus tilshunosligida , tilshunoslik intizomi sifatida paydo bo'lishida XX asrning 40- yillariga to'g'ri keladi va akademik V.V Vinogradov nomi bilan bog'liqdir. L.V Sherbaning maqsadli g'oyalari asosida ya'ni frazeologizmlarni nutqiy nuqtai nazardan emas, balki lingvistik jihatdan o'rganishni V.V. Vinogradov shakllantirdi va frazeologiyaning tilshunoslik predmeti, obyekt va tuzilishini lingvistik intizom sifatida ko'rib chiqdi. Shuningdek, frazeologiya fanining metatilini tizimlashtirishga harakat qildi va mavjud bo'lgan ko'plab atamalar o'rniga barqaror so'z iboralarini belgilash uchun "frazeologik birlik" atamasini ishlatishni taklif qildi.

A.A Shaxmatovning tugallangan va tugallanmagan bo'linmaydigan iboralar haqidagi ta'limoti hamda Sh. Ballining so'z iboralarini turli darajalik semantik mustaqil komponentlari haqidagi izlanishlari asosida V.V Vinogradov frazeologik birliklarni tasniflanishini va so'z komponentlarini birlashganligini semantik tuzilishlari nuqtai nazaridan qaytatdan o'rganib chiqdi. Vinogradov izlanishlari keyinchalik leksik, grammatik, sintaktik va morfologik frazeologik birliklarni tasnifiga asos bo'lib berdi.

Frazeologiya obyekt va predmeti boshqa rus tilshunos olimlarini ham diqqatini o'ziga tortgan. Yana bir rus lingvisti M.V Lomonosovni rus tili frazeologiya muammolari juda qiziqtirgan. M.V Lomonosov frazeologik muammolarning tabiatini tushunishga va ularni rus tili adabiyoti lug'atida joy topishiga xarakat qilgan masalan: (Словарь Академии Российской ,1788-1794). Keyinchalik ushbu bayon etilgan materialning leksikografik amaliyotiga yetarlicha jiddiy diqqatini qaratgan. Frazeologik birliklar boshqa bir tilshunoslar tomonidan tasvirlangan masalan; V.I Dal tomonidan (Толковый словарь живого великорусского языка ,1863-1866), (Сборник Пословицы русского языка народа ,1862), Ya.K. Grot (Словарь Русского языка, 1895), A.A. Shaxmatov (Словарь Русского языка), D.N. Ushakov (Толковый словарь русского языка) va deyarli barcha zamonaviy izohli va frazeologik lugatlarda.

Zamonaviy frazeologiya nazariyasi ikkitalik sistema atamasidan foydalanadi misol qilib aytganda frazeologiya va frazeologizmlar, idiomatika va idioma. Ayni shu xususiyat frazeologiya paydo bo'lgandan beri davom etadi. Masalan M.V Lomonosov o'z ishlarida ikkala guruh terminlaridan foydalangan. M.V Lomonosov frazeologik birliklarni "frazeslar" yoki "idiomatizmlar" va yana "rus maqollari deb atagan". Eng ko'p tarqalgan va juda ko'p marotaba ishlatilgan atama bu frazeologik birlik atamasi, chunki bu atama frazeologik birlikning tilning sistemasiga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. V.L Arhangel'skiy fikriga ko'ra: "Tilning frazeologik tarkibi degan atama frazeologiyanning xamma obyektlarini qamrab oluvchi sifatida xizmat qilishi mumkin va tilning so'z tarkibi degan atamasiga yaqqol mos kelib turli xil xususiyatli frazeologik birliklarni sistemalashga yordam beradi.

Frazeologiyaning mustaqil bo'lim sifatida rivojlanishida uning tarixiy bosqichlari juda katta ahamiyatga ega. Tarixiy frazeologiyaning predmeti bu frazeologizmlarni birinchi bo'lib kelib chiqqan shakllari hamda ma'nosini o'rganish va barcha mavjud yodgorliklar manba'larini aniqlashdan iboratdir. Til mavjud bo'lgan vaqtdan beri turli davrlarida ulardan foydalanish sohalarini aniqlash, shuningdek, frazeologik tarkibning hajmi va til rivojlanishiga u yoki bu tarixiy davrida uning tizimli tartibini belgilashdir. Rus tilshunoslari F.F Fortunatov va undan keyin uning o'quvchisi A.A Shaxmatov rus tili sistemasida "birlashtirilgan so'zlarni" farqlab masalan: (неприятель, так как, Москва река) hamda tugallanmagan iboralar, leksik frazeologik birliklar va tugallangan iboralar haqida izoh bergan. A.A Shaxmatov tomonidan yana bir g'oya surilgan, ya'ni turg'un gap yoki so'z birliklarini bir biridan ajratib bo'lib tashlash kerakligi haqida izoh bergan. Tugallangan ibora ostida u tugallangan gap yoki biror bir tugallangan g'oyani bildiradigan va o'z intonatsiyasiga ega bo'lgan ma'noni tushuntirgan. Tugallanmagan ibora esa shaxsan bunday xususiyatlariga ega bo'lmagan iboradir.

Tilshunos N. Yanko-Trinit'skaya xam frazeologiyaga yetarlicha xissasini qo'shgan tilshunoslardan biri deb hissoylanadi. N. Yanko-Trinit'skaya o'z ishlarida umumiy frazeologiyaning predmeti va obyektini to'liq tushunishga harakat qiladi. U "frazeologiya va frazeologik birliklarga shunday ta'rif beradi: "Frazeologiya yoki frazeologik birliklar shunday tarkibiy birlikki tuzilishi u yoki bu darajadagi integratsiya qoidalariga mos kelmaydigan birlik boshqacha qilib aytganda, u namunasiz shakllanishdir". Shuning uchun integratsiya qonunlaridan chetlashish turli xil ruhiyatga egadir: morfologik, morfologik, so'zning tarkibiy, leksik, semantik, aksentologikdir. N.Yanko-Tripitskayaning til tizimida frazeologiyaning o'rni haqidagi xulosasi shundan iborat: "Frazeologiya til tizimida muhim bir darajani ifodalamaydi aksincha frazeologizmlar xamma tizimli darajalarda mavjud". Ushbu fikrlar bilan paralel ravishda N Yanko. Tripitskaya ko'rgazmali ravishda frazeologiyaning til tizimidagi o'rni haqida tushuncha berib o'tadi.

Frazeologiya va frazeologik birliklarni o'rganilishi tarixi shuni ko'rsatadiki frazeologiyani tilshunoslikning bir bo'limi sifatida shaklanishida frazeologizmlarning kategorial xususiyatlarini aniqlash muammosi eng qiyin va eng dolzarb muammo sifatida ko'riladi. Shu muammoni yechishda juda ko'p tilshunos professor olimlar izlanishlar olib borishdi: idiomalar (A.I Smirnitskiy), nominatsiya butunligi (O.S Axmanova), obrazlilik (E.A Yefimov, V.F Rudov, Y.R Gepner va boshqalar).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Меликян В.Ю. Современный русский язык [Электронный ресурс] : синтаксическая фразеология : учеб. пособие / В.Ю. Меликян. — 2-е изд., стер. — М. : ФЛИНТА, 2014. — С. 9
2. Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. М., 1977. С. 119.
3. Срезневский И.И. Замечания об образовании слов из выражений // Записки Императорской академии наук. Т. XXII. Кн. II. СПб., 1873. С. 16.
4. Янко-Триницкая Н. Фразеологичность языковых единиц разных уровней языка // Известия АН СССР. Сер. лит-ры и языка. Т. XXVIII. Вып. 5. 1969. С. 431.
5. Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. Ростов н/Д., 1964. С. 60.